

**Shaxobiddin TILAVOV,**  
Samarqand davlat chet tillar instituti o'qituvchisi

SamDCHTI,(PhD), dotsent, S.E.Erkinov taqrizi asosida

## INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA TIPOLOGIK NISBAT KATEGORIYASI

Аннотация

Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida tipologik nisbat kategoriyasi haqida tilshunos va olimlar tomonidan nazariy fikr mulohazalari bo'yicha tahlil qilingan. Bundan tashqari, muallif ingliz va o'zbek tillari badiiy adabiyotlardan foydalanib misollar orqali nisbat kategoriyasini aniqlashga harakat qilgan.

**Kalit so'zlar:** Nisbat kategoriyasi, oppozitsiya, nisbat formalar, morfemik analiz.

## КАТЕГОРИЯ ТИПОЛОГИЧЕСКОГО СООТНОШЕНИЯ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация

В данной статье анализируются теоретические рассуждения лингвистов и ученых о категории типологического соотношения в английском и узбекском языках. Кроме того, автор попытался определить категорию соотношения на примерах с использованием художественной литературы на английском и узбекском языках.

**Ключевые слова:** Категория соотношения, противопоставление, соотношение форм, морфемный анализ.

## THE CATEGORY OF TYPOLOGICAL CORRELATION IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Annotation

This article analyzes the theoretical arguments of linguists and scientists about the category of typological correlation in English and Uzbek languages. In addition, the author tried to determine the category of correlation using examples using fiction in English and Uzbek.

**Key words:** Category of correlation, juxtaposition, correlation of forms, morphemic analysis.

**Kirish.** Nisbat kategoriyasi tillar sistemalarida, jumladan ingliz va o'zbek tillari sistemalarida alohida o'rin tutadi. U leksik, morfologik va grammatik yaruslarda bog'lovchi qatlam hisoblanadi. Nisbat formolari fe'larning shaxsli va shaxssiz formolari uchun xosdir. Fe'lning barcha grammatik kategorial formolari nisbatning biror ma'nosi bilan bog'langandir.

Fe'l sistemasida nisbat kategoriyasi boshqa kategoriyalarga nisbatan ancha mustaqil, ammo u juda kam o'rganilgan. Shuning uchun fe'lning grammatik kategoriyasini to'g'ridan - to'g'ri nisbat kategoriyasini o'rganishdan boshlamq maqsadga muvofiqdir. Nisbat o'rganishdagi bu prinsip ko'pgina nazariy va amaliy grammatikalarda qabul qilingan.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** F. R. Palmer bu haqda quyidagilarni yozadi: "Voice is considered first because it is so different from the other categories that it can be handled entirely separately from them"[1].

Nisbat kategoriyasi muammolarining ko'p tomonlari german va turkiy tillarda bir xil darajada hal etilmaganligicha qolmoqda. Mazkur masala xususida M. M. Guxman mana shularni yozadi. "Fe'l kategoriyasi sistemasida faqat german tillarida emas, hind - yevropa, turkiy va mo'g'il tillarida, kavkaz va tung'us - manjur tillarida nisbat kategoriyasi yancha noaniq, ancha bahsli muammo kasb etmoqda"[2].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ingiz tilida nisbat muammosi quyidagi umumiy va xususiy masalalarni o'z ichiga oladi:

- Nisbat aniqlash muammosini;
- Nisbatning ba'zi turlarini (o'zlik, birlik va o'rta nisbatlar) aniqlashni;
- Biror nisbat ma'nosi bilan bog'liq bo'lgan sintaktik konstruksiyalarning analitiklashuvi yoki morfologiyalashuvi, ya'ni kausativ, o'zlik, birgalik kabi "formalar"ning aniqlanishi;
- Get, become, remain + II konstruksiyalarining xususiyati masalalarini;
- Majhul nisbat formalarini qo'shma ot - kesimdan farq qilishdagi qiyinchiliklar yoki holat va jarayonni binar ravishda ifodalaydigan konstruksiyalar omonimiyasi;
- Aniq nisbatning majhulga aylanishi muammosini;
- Nisbat ma'nolarining o'timli va o'timsizlikka munosabatini;
- Nisbat konstruksiyalarida nominalizatsiya masalalarini;
- Stilistik jihatdan bog'liq bo'lgan variantlarni aniqlash muammosini.

Hozirgi o'zbek tilida ham nisbat kategoriyasining ko'p tomonlari nazariy o'rganilmagan. O'zbek tilshunosligidagi hal etilmagan masalarga quyidagilarni kiritish mumkin:

Nisbat umumiy ta'rifi yo'qligini;

Nisbatning o'timli va o'timsizlik kategoriyasi bilan aloqasini;

Nisbat formolari paradigmasi bilan so'z yasash paradigmasi o'rtasidagi farqni aniqlashni.

O'zbek tilidagi nisbat formalarining o'zaro oppozitsiyasi, nisbat formalarining morfemik analizi, nisbat kategoriyasiga transformatsion metodni tadbiiq etish, nisbat kategoriyasining yaruslararo nominallashmagan va nominallashgan sinonimi variantlarini tadqiq etish masalalari deyarli o'rganilmagan.

**Tahlil va natijalar.** Logikaning asosiy qonunlariga taya'nib nisbat kategoriyasi mazmunini tushuntirishda birmuncha qiyinchiliklar tug'iladi, ya'ni grammatik subyekt va grammatik obyekt o'rtasida farq bo'lishiga qaramay, ular aynan birday deb qaraladi.

Nisbat kategoriyasini ta'riflashda logik va grammatik xususiyatlarni chalkashtirishdagi umumiy kamchiliklari ko'rsatib, V.Z. Panfilov nisbat kategoriyasini quyidagicha ta'riflaydi: "Nisbat kategoriyasi ega (grammatik sub'ekt) va to'ldiruvchi (grammatik ob'ekt) ning fe'ldan anglashilgan hamda uning ma'lum formasiga yo'naltirilgan ish - harakatning sub'ekti va ob'ekti munosabatini tavsiflaydi"[3].

Ingliz tilida bu esa yanada murakkablashgan muammodir. Dastlab ayrim tilshunoslarning nisbat ma'nosi strukturasi o'zida ba'zi ta'riflarini keltirib o'tamiz:

G. Suit nisbat quyidagicha ta'riflaydi: "By voice we mean different grammatical ways of expressing the relation between a transitive verb and its subject and object"[4].

Barxudarov L.S., Shtilling D.A.; "Fe'ning nisbat kategoriyasi ish – haraktning bajaruvchisiga nisbatan turlicha yo'nalishini ifoda etadi" deb ta'riflaydi[5].

Jigadlo V.I., Ivanova I. P., Iofik L.L.: "Fe'ning nisbat kategoriyasi ish - haraktning uning sub'ektiv va ob'ektiv munosabatini fe'l formasida ifodalashini aks ettirida" – deb ta'riflaydi. Bunga o'xshash ta'riflar inglizshunoslikda judayam ko'p[6].

O'zbek tilida ham nisbat kategoriyasiga xuddi shunga o'xshash ta'riflar beriladi. Biz bularga alohida to'xtalib utirmaymiz. Chunki biz an'anaviy grammatik nisbatni emas, balki nisbat kategoriyasini o'rganamiz.

Ingliz tilidagi nisbat turli lingvistik maktab vakillari va yo'nalishlar tomonidan har xil nuqtai nazardan o'rganilgan va o'rganilmoqda. Shuning uchun nisbat an'anaviy nuqtai nazardan va transformatsion nuqtai nazardan o'rganilmog'i kerak. Traditsion nuqtai nazardan nisbat ish - haraktning subyektivi va obyektivi o'rtasidagi turli munosabatlarni ifodalash uchun xizmat qiladigan grammatik kategoriya tarzida o'rganiladi. Forma va unga mos ma'noning bo'lishi nisbat kategoriyasiga xosdir. Odatda forma deganda mavhumlashgan morfologik forma tushuniladi.

O'zbek tilida asosan beshta nisbat borligi e'tirof etilgan bo'lsa, ingliz tilida o'larning miqdori masalasi hali hal etilmagan.

Ingliz tilidagi nisbat kategoriyasi borasida inglizshunos olimlar turli xil fikrlarni ilgari so'rishgan. Masalan:

Birinchi, ikkita nisbat bor: aniq nisbat va majhul nisbat; (active and passive).

Ikkinchi, uchta nisbat bor: aniq nisbat, majhul nisbat va o'zlik nisbat (active – passive – reflexive ) yoki aniq nisbat, majhul nisbat va o'rta nisbat (active – passive – neuter);

Uchinchi, to'rtta nisbat bor: aniq nisbat, majhul nisbat, o'zlik nisbat va kuzativ nisbat (active – passive – reflexive – causative);

Deyarli barcha inglizshunos olimlar ingliz tili fe'l sistemasida ikkita nisbat bor deb hisoblashadi. Poutsma, Jigadlo V.N. ingliz tilida ikkita nisbat bor desa[7], Whitehall to'rtta nisbat bor deydi.

Lingvistik tadqiqotining so'nggi metodlarini qo'llab, nisbat sistemasini bayon etishning alohida ahamiyati bor. Bunda ingliz tilidagi nisbat transformatsion tahlil qilishga bag'ishlangan asarlar muhim ahamiyat kasb etadi. Transformatsiya aniq majhul nisbat yasaliishi jarayonida, ya'ni aniq nisbat majhulga, majhul esa aniqqa aylantirishda qo'llaniladi.

Nisbatning aktiv - passiv transformatsiyasini N. Xomskiy quyidagicha formallashtirgan: NP1 + V+ Np2 + Np2 + is + Ven + by + Np1 mazkur namuna turli mutaxassislar ishlarida tobora takomillasha boradi.[8]

Y. Svartvikning maxsus dissertatsion ishi nisbatni transformatsion o'rganishga bag'ishlangan [9]. F. Palmer, R. Alle, Bax, O. Tomas, J. Layans, P. Roberts, J. Anderson kabi olimlarning asarlarida nisbat sistemasining transformatsion tahlili ancha mufassalroq bayon etilgan.

Y. Svartvik o'qitirib o'tganidek, nisbat formalarini shartli belgilash masalasini, O. Yespersenning «Grammatika falsafasi» asarida uchratamiz:[9]

Jack loves Jill → Jill is loved by Jack.

Nisbat sistemasi qiyosiy planda o'rganilayotgani uchun ingliz tilidagi nisbat sistemasini boshqa tillardagi nisbat sistemalari bilan qiyoslashga doir ishlar deyarli yo'qligini uqtirib o'tish zarur.

Nisbatning semantik – struktural birliklari dastlab klassik tillar sistemalarida aniqlangan, keyinchalik esa hind – yevropa tillaridan boshqa ko'pgina tillarni bayon etishda ulardan foydalanilgan. Nisbatning semantik – struktural birliklari hamisha nisbat sistemalarini tasvirlash etaloni xizmatini o'taydi.

Hind – yevropa va boshqa oilaga mansub tillardagi lingvistik tadqiqotlarda nisbat kategoriyasini ajratishda nisbat ma'nolari ifodalanishining morfologik ko'rsatkichlariga asoslaniladi. Morfologik ko'rsatkichlarga maxsus so'z o'zgartuvchi formantlar kiradi.

Ingliz nisbati ana shu asosda, ya'ni aniq nisbatning belgilanmagan asl formasini analitik formaga qarshi qo'yish bilan aniqlanadi. O'zbek nisbati esa sintetik belgilanganlik oppozitsiyasi asosida aniqlanadi.

Agar faqat fe'l formasi yasaliishga asoslaniladigan bo'lsa, unda har xil sistemali tillarda qiyoslash haqida gap bo'lishi mumkin emas.

Undan tashqari ko'rsatilgan birliklarning ba'zilar maxsus turg'un sintaktik konstruksiyalar, shuningdek, leksik birliklari negizi ishtirokida anglatiladi. Bu nisbat ma'nolarining tipologik kompensatsiyasi (to'ldirilishi - qoplash) bilan ifoda etilishidan darak beradi.

Til sistemasida o'ziga xos lingvistik kompensatsiya mavjudligini uqtirish lozim. Bu kompensatsiya shundan iboratki, agar mazmun planining biror birligi bir yarusda o'z ifodasini topmasa unda bu yarusdagi mazkur yetishmovchilik boshqa yarus birligi bilan to'ldiriladi, ya'ni mazmun planining o'sha birligi boshqa yarus vositalari bilan ifoda etiladi. Bu ingliz tilidagi nisbat kategoriyasi misolida yaqqol ko'rinadi. Morfologik yarusda ifodalanish sistemasi kamligi uchun sintaktik yarusda ifodalanish sistemasi taraqqiy etgan.

Sintaktik yarusda shu markerlarni olgan har bir konstruksiya boshqa nisbatdagi konstruksiyaga qarshi qo'yiladi. Ularning pozitsiyasini nisbat ma'nolarining bor – yo'qligi bilan aniqlash mumkin. Masalan, ular o'zliklikni ifodalovchi - o'zlikliklikni ifodalovchi, birgalilikni ifodalaydigan – birgalilikni ifodalamaydigan, kuzativ - kuzativ bo'lmagan konfiguratsiyalarni tashkil qiladi.

Ba'zi tillarda nisbat ma'nolar bir paytning o'zida ham morfologik yarusda, ham sintaktik yarusda ifoda etilishi mumkin. Unday tillarda nisbatning morfologik formantlari va nisbat konstruksiyalarining markerlari bir – birini istisno qiluvchidir, ya'ni nisbat formalarini sintaktik nisbat konfiguratsiyalariga transformalashda nisbat morfemalari tushib qoladi, negaki sintaktik yarusda ularning o'rnini maxsus aniqlovchilar to'ldiradi.

Lingvistik adabiyotda aniq nisbat quyidagicha tasviflanadi: ega yoki gapning subyektivi ish – harakatni bajaradi yoki nisbat formasi fe'ldan anglatilgan protsess, fe'l formasi grammatik jihatdan bog'liq bo'lgan so'z bilan ifodalangan predmetdan boshlanishini va undan tashqariga yo'naltirilishini, ish – harakat shaxs yoki predmet tomonidan bajarilishini ko'rsatadi.

Ingliz tilida aniq nisbat formasi barcha kategoriyalar formalari yasaliishi uchun asos bo'ladi. Ammo majhul nisbat formasi bunday kuchga molik emas. Tilda aniq konstruksiyalar majhulga nisbatan ko'pdir. Chunki aniq nisbatdagi hamma formalar ham majhul nisbat formasiga o'tavermaydi. Bu masala ko'p tillar uchun umumiy bo'lgan aylanish nazariyasi bilan bog'liq. Aylanish nazariyasi ham semantik, ham formal nuqtai nazardan turli tanqidlarga duch keldi.3 Ammo tilshunoslar o'tish yoki aylanishni absolyut chegara deb tushunadigan ishlar ham bor.

Aniq va majhul nisbat transformatsiyasi muammosi bilan mutaxassislar shug'ullana boshlashgandan keyin mazkur masala yanada muhim bo'lib qoldi.

Aylanish nazariyasining mohiyati shundaki, har qanday maj-hullik aniq nisbatning aylantirilganidir. Ammo ko'p lingvistlar tomonidan isbotlanishicha, bu tushunchada qat'iylik va absolyutlik yo'qdir. Aniq nisbat konstruksiyalari majhul nisbatga aylanmasligi va aksincha, aniq nisbatga mos kelmaydigan majhul nisbat konstruksiyalari mavjudligiga bir qancha sabablar bor.

1. Majhul nisbat konstruksiyalarining bo'lmaslik hollari quyidagilardir:

a) Davomli fe'lining beshta aniq nisbat formasida majhul nisbat formasi yo'q. L.S. Barxudarov, D. A. Shtelling aniq va majhul nisbatning qiyosiy jadvalini berib, majhul nisbat formasining yo'qligini ko'rsatadi.

Aniq, nisbat	Majhul nisbat
Is writing Was writing Will be writing will be	Is being written was being written -
Has being writing Had been writing Will have been writing writing	- - -
To be writing	-

Zarurat tug'ilgan hollarda davom fe'l formasidagi aniq, nisbat konstruksiyasini majhul nisbatga aylantirganda, davomsiz (oddiy) formadan foydalaniladi

**Xulosa va takiflar.** Nisbat kategoriyasi umumiy makromaydon hisoblanib, u bir necha semantik kichik gruppalardan, ya'ni mikromaydonlardan tashkil topgan bo'ladi. Nisbatning bu mayda gruppalarini deduktiv ravishda tanlab olamiz va har ikkala til sistemasida nisbatlik kategoriyasining mazkur turlarini izomorflik va allomorflik xususiyatlarini nazarda tutib ko'rib chiqamiz.

#### ADABIYOTLAR

1. Palmer F. R. A Linguistic study of the English verb, Langmans, London, 1965. 384 p.
2. Гухман М.М. Развитие залоговых противопоставлений в германских языках. М. 1954. 369 с.
3. Панфилов В.З. Грамматика и логика. М-Л. 1963. 230 стр.
4. Sweet H. A new English Grammar. Part I pp. London; Oxford University press, 1940. 499 p.
5. Бархударов Л. С., Штеллинг Д. А. Грамматика английского языка М. «Высшая школа», 1965. 423 с.
6. Жигадло В.Н., Иванова И.П., Иофик Л.Л. Современный английский язык. Теоритический курс. М. Лит. на иностр. языке 1956. 350 с.
7. Poutsma H. A Grammar of Late Modern English. Groningen, 1926 part 22, p. (107/) 891 p.
8. Chomsky N. Syntactic structure. The Hague, Monton, 1957. 42 p.
9. Jan Svartvik. On Voice in the English verb. Vouton and Co., The Hlague. Paris, 1966. 345 p.